

14-YANVAR VATAN HIMOYACHILARI KUNI

Azimov Farxod Abdixalimovich

Farg'ona Davlat Universiteti

Harbiy ta'lif fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Vatanparvarlik — bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbatini va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'llidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytilmagan. Vatanparvar insonlar vatanimizda juda ham ko'r uchraydi. Masalan, Abdulla Avloniy, u qatag'on yillari paytida yashagan bo'lsa ham so'z erkinligi unda juda rivojlangan. Mahmudxo'ja Behbudiy, u o'zining bolalarni o'qitish kitoblari bilan Vatanimizda tanilgan. Uning bolalarga chet tilini o'rgatish, savod chiqarish va boshqa o'qitishga oid qilgan ishlari taqsimga loyiq. Birinchi prezidentimizning "Yuksak Ma'naviyat Yengilmas Kuch" asarida ham ajdodlarimiz o'z ona yurtlari uchun qo'shgan hissalari haqida juda ko'r malumotlar keltirilgan, masalan Chingizxon zulmiga qarshiliklar Amir Temur jasorati Jaloliddin Manguberdi va boshqa buyuk sarkardalar haqida malumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Vatan himoyachilar kuni, qurolli kuchlar, milliy armiyamiz, mustaqillik, bobokalonlarimiz, ilmu fan, madaniyat.*

Аннотация: Патриотизм — понятие, выражающее любовь и преданность людей родной земле, своей до потолка. Патриотизм-одно из общечеловеческих чувств, духовных ценностей, общих для всех людей, народа, народов, отполированных веками. Исторически патриотизм-это также совокупность чувств, которые складывались у людей в процессе социального развития, связанного с судьбой их родины, борьбы народов за неприкосновенность и независимость территории, на которой они живут. Это проявляется в гордости за прошлое и настоящее Родины, в защите ее интересов. Не зря говорят, что любовь к Родине-это вера. Патриотические люди встречаются на нашей родине гораздо чаще. Например, Абдулла Авлани, хотя в годы репрессий он жил в свободе слова в нем очень развит. Махмудходжа Бехбуди, он известен у нас на родине своими книгами по обучению детей. Его работа по обучению детей иностранному языку, распространению грамотности и другим видам обучения заслуживает распространения. В "труде о высокой духовности непобедимой силы" нашего Первого Президента также много упоминаний о вкладе наших предков в их родную

землю например, сопротивление угнетению Чингисхана Амир Темур храбрость Джалаудина Мангубердия и других великих полководцев .

Ключевые слова: День защитника Отечества, Вооруженных Сил, нашей национальной армии, независимости, предков, науки, культуры.

Annotation: *patriotism is a concept that expresses the love and loyalty of people to their native land, to their own country. Patriotism is one of the universal feelings, spiritual values, common to all people, people, Nations, polished for centuries. Historically, patriotism is also a set of emotions that have been improved in the process of Social Development, the struggle of people for the inviolability and independence of the territory in which they live, related to the fate of their homeland. It is manifested in pride in the past and present of the motherland, in the protection of its interests. It was not for nothing that the love of the motherland is from faith. Patriotic people are much more common in our homeland. For example, Abdullah Avlani, even though he lived during the years of repression, freedom of speech was very developed in him. Mahmudhaja Behbudi, he is known in our homeland for his children's education books. His work on teaching children a foreign language, making baskets and other teaching is worthy of distribution. The "work of the invincible power of high morale" of our first president also provides very much comprehensive information about the contributions that our ancestors made for their native lands-for example, opposition to the tyranny of Genghis Khan Amir Temur courage Jaluddin Manguberdi and other great warlords .*

Keywords: Homeland defender's day, armed forces, National Army, independence, grandparents, science, culture.

Ma'lumki, mustaqilligimizning ilk yillardanoq mamlakatimiz mudofaasini kuchaytirish masalasi davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'naliishlaridan biri deb belgilandi. Yurtboshimizning Mudofaa ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risidagi farmoni bilan bu boradagi ishlarga tamal toshi qo'yildi. Keyinchalik mudofaa ishlari vazirligiga aylantirildi.

1992 yil 14-yanvar kuni esa mustaqil davlatimiz tarixida yana bir muhim tadbirga qo'l urildi. Respublika Oliy Kengashining "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida"gi qarori bilan mamlakatimiz hududidagi barcha harbiy tuzilmalar mustaqil O'zbekiston tasarrufiga o'tkazildi. Davlatimiz rahbari tashabbusiga asosan qabul qilingan mazkur hujjat armiyamizni isloq qilishning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqilishiga yo'l ochdi. 1993-yilning 29-dekabrida 14-yanvar jonajon yurtimizda "Vatan himoyachilar kuni" deb e'lon qilindi.

Hozirgi kunda hayotning o'zi Qurolli Kuchlarni boshqarish, rejalashtirish va qo'llash tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish, boshqaruvning informatsion vositalari va harbiy aloqa tizimlarini uyg'unlashtirishni, Qurolli Kuchlarimiz axborot-kommunikatsiyalarining raqamli yagona tarmog'ini yaratishni taqozo etmoqda. Milliy armiyamizni bosqichma-bosqich va tizimli ravishda shakllantirishda, avvalo O'zbekistonning mintaqamizda va hozirgi dunyoda tutgan geostrategik va geosiyosiy

o'rnini, mamlakatimiz havfsizligiga qarshi qaratilgan jiddiy ichki va tashqi tahdid va xatarlarni, ayniqsa, kuchayib va faollashib borayotgan xalqaro terrorchilik, ekstremizm, tobora ko'lami kengayib borayotgan narkoagressiya, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi kabi balo-qazolarni hisobga olgan holda amalga oshirildi. Armiyamiz jahon harbiy qurilishining eng ilg'or tajribalarini o'zida mujassam etgan bo'lib, ayni paytda milliy jangovar an'analarimizni yuksak sadoqat bilan davom ettirmoqda, shu bilan birga, mintaqamizda ro'y berish ehtimoli mavjud bo'lgan harbiy harakatlar va jangovar amaliyotlar ham har tomonlama e'tiborga olinmoqda. Harbiy o'quv yurtlarimizdagi ta'lim tizimi tubdan o'zgarmoqda, ularda bo'lg'usi ofitserlarni tayyorlash va tarbiyalash hozirgi zamon talablariga to'la mos keladigan, printsipial jihatdan mutlaqo yangi bo'lgan o'quv-texnik va ma'naviy-ahloqiy asosda yo'lga qo'yilgan. Armiya saflariga, avvalombor, mustaqil va suveren O'zbekistonimizga xizmat qilish, uning manfaatlari va sarhadlarini, xalqimizning tinch va osuda hayotini himoya qilishga azmu qaror qilgan mard va fidoyi, intellektual jihatdan tarbiya topgan yetuk kadrlar keldi.

O'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohatlar tufayli yurtimiz xavfsizligini, sarhadlarimiz dahlsizligini ishonchli himoya qilishga, aholimizning tinch va osuda hayotiga qarshi qaratilgan har qanday g'arazli urinishlarning oldini olishga qodir bo'lgan, ixcham, tezkor, tashkiliy jihatdan mukammal, zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlangan milliy armiyamiz shakllantirildi.

Bugungi kun yurtimiz o'g'lonlari buyuk bobokalonimiz izdoshi bo'lib kelmoqda. Ulug' ajdodlarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan Sohibqiron Amir Temur bobomiz haqida alohida to'xtalib o'tamiz. Chunki azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk sultanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zida ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar va dalillardan ko'rinish turibdiki, davlat arbobi yoshligidan juda tadbirdor, ishning ko'zini biladigan shahs bo'lgan, u ayniqsa, boshqaruvning nozik, ko'pchilik uchun tushunish qiyin bo'lgan sirlarini yaxshi o'zlashtirgan. Uning dunyoqarashida davlatga, harbiy ishlarga bo'lgan qiziqishi yoshligidan uyg'onadi. Uni ulamolar imtihon qilishib, quvvat xotirasiga tasannolar aytishgan.

Amir Temur 16-18 yoshida qilichbozlik, nayzabozlik va ov qilish san'atini mohirona egallaydi va 20 yoshida esa abjis chavondoz bo'lib yetishadi. Keyin u o'z tengqurlarini guruuhlarga bo'lib, jang mashqlarini o'tkaza boshlaydi. Sohibqiron o'n olti yoshgacha faqat diniy emas, balki dunyoviy fanlar-tarix, falsafa, geografiya, hisob va boshqa ilmlardan ham xabardor bo'lgan. Buyuk lashkarboshi mamlakat obodonchilagini yuksaltirish, aholining iqtisodiy turmush tarzini yaxshilash va mo'l-ko'lchilikni ta'minlashga o'zining ulkan xissasini qo'shgan. Bunga ulug' Amir pirlari Shayx Zayniddin Abubakr Toybodiyl uqtirgan sultanat ishlaridagi 4 ishga:

- 1.Kengash;
- 2.Mashvaratu maslahat;

- 3.Mustahkam qaror, tadbirkorlik va hushyorlik;
- 4.Ehtiyyotkorlikka amal qilganligi tufayli erishgan.

Buni biz sohibqiron Amir Temurning “Barcha ishlari�ning to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim”, deb aytgan iboratomuz so'zlaridan ham bilsak bo'ladi. Sohibqiron qaysi bir mamlakatga lashkar tortib borganligidan qat'i nazar, u adolatni himoya qilgan, insof va diyonat uchun jangga kirgan. Aksariyat hollarda kelib chiqqan urushlar Sohibqiron Amir Temur raqiblariningadolatsizligi, insof diyonatsizligi, iymonsizligi aybi bilan jang olib borgan. Hozirgi kunda Sohibqiron Amir Temur amalda qullagan harbiy san'at merosi jahon xalqlarining harbiy san'ati merosidan munosib o'rinn oldi va hozirgi davrning yangi mazmuni bilan boyib bormoqda.

Vatanostonadan, inson yashab nafas olib turgan go'shadan, insonning kindik qoni to'kilgan xonadon tuprog'idan boshlanadi. Shu bois, inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga yetgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi, uning har bir hovuch muqaddas tuprog'ini ko'ziga to'tiyodek surtishi, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashashi uning uchun ham farz, ham qarzdir. Vatanimiz tuprog'idagi har bir qarich yer muqaddas hisoblanadi. Shuning uchun ajdodlarimiz yurt tuprog'ini ko'zlariga to'tiyo etganlar, qayerga borsa ham Vatan yodi bilan nafas olganlar.

Dunyoda Vatan tuyg'usi degan muqaddas va aziz tushuncha bor. Yani Vatan tuyg'usi-bu Vatanni himoya qilib, jonajon Vatan deya fido bo'lgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Solihbek dodxo, mulla Alimqul dodxo singari yuzlab sheryurak ajdodlarimizni eslashdir. Tomirida oxirgi tomchi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Shermuhammadbek, Madaminbek, Ibrohimbek, Namoz botir singari bo'ysinmas bahodirlarning, o'g'ir kunlarda qardoshlarga elkadosh bolay deb, harbiy vazirlik lavozimidan iste'foga chiqib, ota yurti Turkistonga kelib, ayovsiz janglarda halok bo'lgan Anvar poshshoning, qullikdan o'limni afzal bilgan Oqmasjid, Chimkent, Avliyoota, Jizzah, Samarcand, Zirabuloq himoyachilarining nomini yodga olishdir.

Vatan tuyg'usi-bu aziz va go'zal Vatanimizga yuksak etiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bolishdir.

Yurtimiz odamlari Vatanimizdan tashqarida baxt-saodatga erisha olmaydilar. Har bir insonning o'z Vatani uning uchun dunyodagi eng go'zal va muqaddas makondir. Vatanga mehr-muhabati bo'Imagan insonni ota-onasiga mehri bor desalar, bunga ishonib bo'lmaydi. Ona Vatanimizga sadoqatli bo'lish, ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma'naviyatdan baxramandlik, o'ziga ishonch, kelajak oldida ma'sullik tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Ta'lrim muassasalarida “Vatan himoyachilari kuni” tadbirlarini o'tkazishning mazmun-mohiyati shundan iboratki, o'quvchilardan Respublikamiz Qurolli kuchlarining salohiyati va obro'si, mamlakatimiz mustaqilligi hamda xududiy yaxlitligi, xalqimizning tinch hayotini va mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi bunyodkorlik mehnatini himoya qilish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini keng yoritib berish, ularni o'z vataniga

sodiq va fidoiy insonlar etib tarbiyalash barcha ta'lif muassasalarining pedagogik jamoasining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Bugungi kunda o'quvchi yoshlarda vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimioy hamkorlik kabi milliy g'oyalarning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, bu ta'lif muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish an'anaga aylanib bormoqda. Yoshlarni harbiy xizmatga kuzatish marosimlarini tantanali o'tkazish ham vatanparvarlik tizimiga kiradi. Vatanimiz, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, bugungi kunda har bir yigit qizning orzusi va burchiga aylanib bormoqda.

Bugungi yoshlarimiz mustaqil Vatanimizning posbonlaridir. Biz navqiron avlod vakillarini barkamol, yetuk kishilar qilib voyaga yetkazsak, ularning har birida or-nomus, milliy g'ururni izchil shakllantirib borsak, Vatanimiz shunchalik qudratli davlatga aylanadi. Vatanni, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, vatanparvar bo'lish, sodiqlik, fidoyilik tuyg'ularini xis etib yashayotgan yoshlarimiz mustaqil yurtimizning kelajagidir. Biz qo'lga kiritgan bunday yutuqlar bilan muqaddas yurtimizda yashayotgan, millati, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, har bir inson haqli ravishda faxrlansa arziydi.

14-yanvar Vatan ximoyachilari kunini yurtimizda, vatanimizda, har bir gushasida nishonlashimiz kerak, xalqimizning xar bir insonini ongida biz Amir Temur avlodimiz, bizning vujudimizda Amir Temur qoni oqmoqdakim va biz xech qachon ona vatanimizni birovga berib quymaymiz, oxirgi qonimiz tomchisi qolguncha vatanimizni himoya qilishga tayyormiz degan fikr va maqsad bo'lishi shart degan tushunchani his-tuyg'uni va buyuk maqsadimiz bo'lishini anglashimiz lozim.